

---

## 60 YOSHGA KIRGANDA YOSHGA DOIR PENSIYA OLASIZ



### 60 yoshga kirganda yoshga doir pensiya olasiz

**Savol:** Mehnat stajim 4 yil, yoshga doir pensiyaga chiqa olmadim, qachon chiqa olaman?

**Javob:** O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 3 sentyabrdagi "**Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida**"gi Qonunining 7- moddasiga asosan ayollar **55** yoshga to'lganda va ish stajlari kamida **20** yil bo'lgan taqdirda yoshga doir pensiya olish huquqiga ega.

Shuningdek, ushbu Qonunning 8-moddasiga asosan Pensiya tayinlash uchun yetarlicha ish stajiga ega bo'lmagan shaxslarga yoshga doir pensiyalar ushbu Qonun **37-** moddasi birinchi qismining "**a**", "**b**", "**v**" va "**g**" bandlarida nazarda tutilgan kamida 7 yil ish staji mavjud bo'lgan taqdirda, bor stajga mutanosib miqdorda tayinlanadi, deb belgilangan.

Vazirlar Mahkamasining **2011 yil 7 apreldagi 107** -sonli Qaroriga asosan tasdiqlangan 2-ilovadagi Nizomning **5.6**-bandlariga ko'ra, ish stajiga ega bo'lmagan va 7 yildan kam ish stajiga ega bo'lgan shaxslar-ayollarga **60 yoshga kirganda yoshga doir nafaqa tayinlanadi**, deb belgilangan.

Shunga ko'ra 60 yoshga kirganingizda yoshga doir nafaqaga chiqishingiz mumkin.

**O'ktamjon Ergashev - So'x tuman yuridik xizmat**

**ko'rsatish markazi boshlig'i**

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2022-11-29 17:14:41